

## IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI VOSITASIDA RAG‘BATLANTIRISH

**B.Kattakishiyev**

Jizzax politexnika instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrası dotsenti

**N.Tojiboyev**

Kibersport fakulteti 533-21 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Soliqlarning rag‘batlantiruvchilik funksiyasini namoyon bo‘lish shakllarining tarkibida soliq imtiyozlari asosiy o‘rinni egallaydi. Shunday ekan, byudjet daromadlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmagan holda, bozor uchun muvaffaqiyatli ishlayotgan korxonalarni rag‘batlantirib turish, soliq mexanizmini yanada samarali ishlashiga zamin tayyorlaydi.

**Kalit so‘zlar:** soliq, soliq imtiyozlari, byudjet, eksport, daromad

Bozor iqtisodiyoti sharoiti hamda yuqori xavf-xatarlar mavjud sharoitda investitsiya va innovatsion rivojlanishning eng kuchli vositalaridan biri bu soliq imtiyozlari tizimini yaratish hisoblanadi.

Odatda, investitsiya jozibadorligini oshirishda soliq imtiyozlari faol ishtirok etadigan vositadir, uni joriy qilishning ham o‘z ahamiyati bor.

Soliq imtiyozi tadbirkorlik sub‘ektlarining o‘z ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishda, yangi texnologiyalarni joriy etishda, daromadlarni investitsiyalashni rag‘batlantirishda samarali vosita bo‘lib, bunday harakat kelgusida byudjetda soliq bazasi va daromad solig‘i tushumlarining oshishiga olib keladi.

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish qayd etilgan va soliq imtiyozlarini qo‘llash chora-tadbirlari bunda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur chora-tadbirlarning ijrosi o‘laroq, tadbirkorlikning ko‘plab sohaslarida soliq imtiyozlarini belgilanishi kabi islohotlar amalga oshirilmoqda va bunga ko‘plab amaliy misollar aytib o‘tilishi mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PQ-104-son Qaroriga asosan 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar tadbirkorlik subyektlari tomonidan chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo‘lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta‘mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko‘rsatuvchi va ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatish faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 % ni tashkil etsa, ijtimoiy soliq stavkasi 1% etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939-son Qaroriga asosan yuridik shaxslar 2023-yil 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda lichinka, baliq chavoqlari va tovar baliq yetishtirishdan, baliqchilik mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olingan daromadlar bo‘yicha aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashdan ozod etildi.

2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvarga qadar baliqchilikni intensivlashtirish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va texnologiyalar hamda qayta ishlash uskunalari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan, biroq daromadining 80 foizidan ortig‘ini ushbu uskunalarni ishlab chiqarishdan oladigan subyektlar uchun foyda solig‘i yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

stavkalari 50 foizga kamaytirildi, baliq yetishtiruvchi xonadon egalariга yer solig'i va mol-mulk solig'i stavkasi 50 foiz miqdorida belgilandi.

Ipakchilik va qorako'lchilik sohasidagi soliq imtiyozlari qatorida ipak qurti urug'i, tut ko'chatlari va pilla yetishtirish, pillani qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mol-mulk va yer solig'idan ozod etildi.

Mamlakatimiz hududlaridagi tadbirkorlik muhitini rivojlantirish uchun tegishli hudud imkoniyatlari inobatga olingan holda tadbirkorlarga maxsus soliq imtiyozlarini qo'llash chora-tadbirlari ham amalga oshirilib kelinmoqda. Birgina misol sifatida, Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida va yer maydonlari sho'rlangan hududlarida davlat ro'yxatidan o'tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu hududlarda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlari foyda solig'ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50% kamaytirilgan soliq stavkalari bo'yicha to'lash tartibi yo'lga qo'yilganligini, shuningdek, viloyatning Bandixon, Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlarida, tog'li hududlarida va yer maydonlari sho'rlangan hududlarida davlat ro'yxatidan o'tib, yangidan tashkil etilgan va ushbu tumanlarda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan tadbirkorlik subyektlariga yuridik shaxslardan olinadigan yer, mol-mulk, aylanmadan olinadigan soliq va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining qat'iy belgilangan summasini to'lashdan ozod qilinganligini ta'kidlash mumkin.

Qonunchiligimizda tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy maqsadlarini rag'batlantirish va aholimizning ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlari tadbirkorligini qo'llab quvvatlash alohida e'tiborga olingan.

Jumladan, Soliq kodeksida nogironligi bo'lgan shaxslar va ular tomonidan ta'sis etilgan yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari belgilandi.

Xususan, Soliq kodeksi 243-moddasiga asosan ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 337-moddasiga asosan yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar foyda solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 380-moddasiga asosan bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 414-moddasiga asosan yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 467-moddasiga asosan yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941-1945-yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironlar, urush va 1941-1945-yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizidan kam bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi "0" foiz

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

etib belgilangan. Shu bilan birga, nogironlarni ishga yollagan tadbirkorlar soliq yukini kamaytirish maqsadida ish beruvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi davlat byudjetidan to'liq qaytarib berilishi joriy etildi.

Yuqoridagilar asosida shuni xulosa qilishimiz kerakki, soliq imtiyozlarining soliq yuki ko'rsatkichlariga ta'sir etishi jihatdan ahamiyati kattadir. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari hamda tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirishda, soliq yuki ko'rsatkichlarini yengillashtirish jihatdan ham soliq imtiyozlarining qo'llanilishi faqat ijobiy ahamiyat kasb etish barobarida, davlat byudjetiga soliq tushumlari miqdorini oshirishni ta'minlaydi.

Soliq imtiyozlarini qo'llash natijalari, nafaqat tashqi investorlar, balki xo'jalik yurituvchi subyektning o'zini ko'proq foyda olish maqsadida berilgan imtiyozlarni o'z ishlab chiqarishiga investitsiya kiritishga rag'batlantiruvchi ahamiyatga egadir.

To'g'ri tashkil etilgan soliq imtiyozlaridan ishlab chiqarishni texnik, texnologik jihatdan yangilash uchun sarf etishi, mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib, bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish imkonini beradi hamda eksportni qo'llab-quvvatlovchi vosita hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.-T.: Adolat, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30-dekabrda "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-sonli Qarori.
5. Baytanov O'.M (2017). O'zbekistonda soliq tizimini takomillashtirish orqali oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar", (6), 62-68.
6. Baytanov O'.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish tizimi. Экономика и социум [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) № 11(102)-2022.
7. Baytanov O'.M. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati. Экономика и социум [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) № 10(101)-1 2022. 36-38-bet.